




ANDIJON VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

ANDIJON VILOYATINING
SANOAT ISHLAB CHIQARISHI
2024-YIL YANVAR-MAY
(DASTLABKI MA'LUMOT)




Tel.: 74 228-30-42
www.andstat.uz


Andijon viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2024-yilning yanvar-may oylarida viloyat korxonalari tomonidan 29 729,6 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023-yilning yanvar-may oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 120,8 % ni tashkil etdi.

Yanvar-may
mlrd. so'm



Yanvar-may
FHI, % da



Andijon sh.	4 241,1	109,7
Xonobod sh.	1 178,0	106,7
Oltinko'l	558,3	120,5
Andijon	453,4	106,5
Baliqchi	1 045,6	110,6
Bo'ston	236,9	107,8
Buloqbo'shi	302,9	108,2
Jalaquduq	439,3	101,2
Izboskan	293,2	109,7
Ulug'nor	252,8	107,4
Qo'rg'ontepa	831,5	107,1
Asaka	17 424,4	127,5
Marhamat	375,3	106,1
Shahrixon	781,6	107,2
Paxtaobod	454,7	110,1
Xo'jaobod	860,4	105,4


mlrd. so'm

FHI, % da


Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Asaka tumanida 48 982,6 ming so'm, Xonobod shahrida 25 683,6 ming so'm, Andijon shahrida 8 792,8 ming so'm hamda Xo'jaobod tumanida 7 153,8 ming so'mni tashkil etmoqda.

Yanvar-may
ming so'm



Yanvar-may
o'sish sur'ati, % da



Andijon sh.	8 792,8	106,7
Xonobod sh.	25 683,6	105,0
Oltinko'l	2 902,3	118,7
Andijon	1 580,8	104,3
Baliqchi	4 835,1	108,3
Bo'ston	3 035,7	105,6
Buloqbo'shi	1 975,4	105,9
Jalaquduq	2 205,9	99,4
Izboskan	1 146,4	107,6
Ulug'nor	3 957,4	106,1
Qo'rg'ontepa	3 602,5	105,1
Asaka	48 982,6	124,8
Marhamat	2 010,1	103,9
Shahrixon	2 403,7	104,8
Paxtaobod	2 174,0	107,8
Xo'jaobod	7 153,8	103,0

yillar

ming so'm

o'sish sur'ati. % da

Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari


Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, **28 949,2** mlrd. so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi **97,4 %** ni tashkil etdi.

Hajmi, mlrd. so'm




2024-yilning yanvar-may oylarida viloyatda jami sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori ulush Asaka tumani (58,6%), Andijon shahri (14,2%), Xonobod shahri (4,0%), Baliqchi tumani (3,5%) hamda Xo'jaobod tumani (2,9%) hissasiga to'g'ri keldi. Shuningdek, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan yuqori FHI Asaka tumanida (107,1%), Oltinko'l tumanida (120,5 %) hamda Andijon shahrida (109,7 %) kuzatildi.

FHI, % da



Ulushi, % da



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

B seksiya

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2024-yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **492,7** mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **1,7 %** ini tashkil etdi.



Yanvar-may

2023-y. 421,7 mlrd. soʻm

2024-y. 492,7 mlrd. soʻm

FHI, % da

2023-y. 136,8%

2024-y. 115,0%

C seksiya

Ishlab chiqaradigan sanoat

2024-yilning yanvar-may oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **28 949,2** mlrd. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining **120,9 %** ini tashkil etdi.

Yanvar-may

2023-y. 20 789,1 mlrd. soʻm

2024-y. 28 949,2 mlrd. soʻm












FHI, % da

2023-y. 103,1 %

2024-y. 120,9 %



**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab
chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati**
O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

Yengil avtomobillar			Yumshoq bug'doy va spelta uni			Paxta tolasi		
2024		121,5	2024		71,7	2024		92,7
2023		86,6	2023		41,4	2023		106,3
2022		154,2	2022		99,9	2022		79,9
Paxtadan yigirilgan ip			Temir yoki po'lat simdan matolar, panjaralar, to'rlar			Alyuminiydan elektr izolyatsiyasiz o'ralgan sim		
2024		128,2	2024		80,1	2024		2,5
2023		58,5	2023		2,0 m.	2023		6,5 m.
2022		181,1	2022		97,6	2022		44,5
Neft			80 % dan kam bo'lmagan etil spirti			Paxta chigiti		
2024		118,8	2024		88,1	2024		2,9 m.
2023		95,7	2023		127,1	2023		64,2
2022		98,7	2022		62,2	2022		34,0

2024-yilning yanvar-may oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 103,6 ming dona yengil avtomobil (2023-yilning yanvar-may oyiga nisbatan 21,5 ga oshgan), 17,6 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (71,7 % kamaygan), 29 277,7 tonna paxtadan ip mahsulotlari (28,2 % ga oshgan) ishlab chiqarilgan.




Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-may	2023-yil yanvar-may	Farqi, +/-
Yengil avtomobillar (ixtisoslashtirilmagan) - dona	103 639	154 792	-51 153
Paxtadan yigirilgan ip - tonna	29 277,7	14 446,3	14 831,4
Yumshoq bug‘doy va spelta uni - tonna	17 570,5	24 408,6	-6 838,1
Temir yoki po‘lat simdan matolar, panjaralar, to‘rlar va to‘siqlar - tonna	107,0	133,5	-26


Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida avtotransport vositalari, treyler, yarim tirkamalar ishlab chiqarish sohasining ulushi – 70,3 % (2023- yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 128,2 %), kiyim ishlab chiqarishining ulushi – 8,3 % (2023-yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 96,7 %), paxtani qayta ishlash va ip gazlama sanoatining ulushi – 9,6 % (2023-yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 111,4%), oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi – 5,0 % (2023-yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 121,3 %)ni tashkil etdi.

O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,0 % ni (2023-yilning yanvar-may oylarida – 56,0 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 72,5 % (2023-yilning yanvar-may oylarida – 130,4 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 2,1 % (2023-yilning yanvar-may oylarida – 123,0 %) va quyi texnologiyalisi – 25,3 % (2023-yilning yanvar-may oylarida – 91,0 %)ni tashkil etdi.





Metallurgiya sanoati




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2024-yilning yanvar-may oylarida metallurgiya sanoati 20,3 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 0,1 % ni tashkil etib, fizik hajm indeksi esa 69,3 % ni tashkil etgan.

2023-yilning yanvar-may oylarida metallurgiya sanoati jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 0,1 % ni va oʻtgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 45,8 % ni tashkil etgan.



Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish




2024-yilning yanvar-may oylari yakunlariga koʻra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,9 % ni tashkil etdi, oʻtgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 33,3 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 271,2 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-may oyida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 0,5 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 62,0 % ni tashkil etgan.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish



2024-yilning yanvar-may oylari yakunlariga koʻra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 5,0 % ni tashkil etdi, oʻtgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 4,7 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 1 455,2 mlrd. soʻmni tashkil etdi.


2023-yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 5,6 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 91,3 % ni tashkil etgan.

Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish



2024-yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, mashina va asbob uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarishning ulushi 0,5 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 85,8 % ni va ishlab chiqarish hajmi 150,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-may oylarida mashina va asbob uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarishning ulushi 0,7 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 113,0 % ni tashkil etgan.




To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati



2024-yilning yanvar-may oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 9,6 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 11,4 % ga oshgan va ishlab chiqarish hajmi 2 783,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 10,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 106,4 % ni tashkil etgan.




Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish




2024-yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 69,8 %, fizik hajm indeksi 28,7 % ga oshdi hamda ishlab chiqarish hajmi 20 200,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 65,9 % ni fizik hajm indeksi esa 95,6 % ni tashkil etgan.



Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish




2024-yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,9 % ni, fizik hajm indeksi 89,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 251,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,3 % ni fizik hajm indeksi esa 242,9 % ni tashkil etgan.



Elektr uskunalari ishlab chiqarish




2024-yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, elektr uskunalari ishlab chiqarish ishlab chiqarish sanoatidagi ulushi 0,9 % ni, fizik hajm indeksi 151,6 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 274,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-may oyilarda ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,0 % ni fizik hajm indeksi esa 150,1 % ni tashkil etgan.



Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish




2024-yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,6 % ni, fizik hajm indeksi 92,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 160,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,7 % ni fizik hajm indeksi esa 91,3 % ni tashkil etgan.

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan 2024-yil yanvar-may oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 192,6 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ini) tashkil etdi.


2024-yilning yanvar-may oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta‘minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 81,4 mlrd. so‘mga oshganligi kuzatildi.



Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-may	2023-yil yanvar-may	Farqi, +/-
Elektroenergiya, mln. kVt.s	278,6	216,5	62,1
Issiqlik energiyasi, ming gkal	0,0	0,4	-

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 76,7 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3 % ni) tashkil etdi.




Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-may	2023-yil yanvar-may	Farqi, +/-
Tabiiy suv: Suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – mlrd. so'm,	57,9	41,9	
Oqava suvlarning shlami – mlrd. so'm	11,8	75,6	,

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 70,8 mlrd. so'm yoki 71,6 % ga ortganligi kuzatildi. Shuningdek, oqava suvlarning shlami bo'yicha xizmatlarda 13,9 mlrd. so'm hajm bajarilgan.

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishida kichik biznesning ulushi 2024-yilning yanvar-may oylarida

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 6 297,5 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 21,2 % ni tashkil etdi.


Hududlar kesimida viloyatdagi Izboskan tumani sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishi 97,9 % kichik tadbirkorlik subyektlari hisobiga tashkil etilgan. Kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Izboskan tumanida 97,9 %, Ulugʻnor tumanida 88,2 %, Shahrixon tumanida 85,6 %, Andijon tumanida 84,0 %, Jalaquduq tumanida 83,3 % ni tashkil etgani holda, eng past ulushli hududlar, Asaka tumani 1,8 %, Xonobod shahri 13,5 %, Andijon shahri 26,8 % ni tashkil etdi. Sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.



2024- yil 1-aprel holatiga

Andijon viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda Andijon viloyatida 10 896 ta sanoat korxonalari ro'yxatdan o'tgan bo'lib, ulardan 5 143 tasi faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1 393 tasi (faoliyat ko'satayotgan korxonalar umumiy sonining 27,1 %) Andijon shahriga, 572 tasi (11,1 %) Andijon tumaniga, 464 tasi (9,0 %) Asaka tumaniga, 377 tasi (7,3%) Shahrixon tumaniga, 343 tasi (6,7 %) Xo'jaobod tumaniga to'g'ri kelmoqda.



2023-yil

326 dona

Yangi tashkil etilgan korxonalar

2024-yil

358 dona



Jami faoliyat yuritayotgan korxonalar

2023-yil

10 884 dona

2024-yil

11 061 dona

Yangi tashkil etilgan

Faoliyat ko'rsatayotgan